


11. Pozitsion sanoq sistemasi



Yondosh mavzu:
Xorazm viloyati

Pozitsion sanoq sistemasi



1. Biz sonlarni yozishda nechta raqamdan foydalanamiz?
Amallarni bajaring. Bu yerda qaysi mamlakat nomi yashirilgan?

S

$$\begin{array}{r} 235 \\ + 123 \\ \hline \end{array}$$

O

$$\begin{array}{r} 683 \\ - 541 \\ \hline \end{array}$$

H

$$\begin{array}{r} 708 \\ + 213 \\ \hline \end{array}$$

N

$$\begin{array}{r} 562 \\ - 319 \\ \hline \end{array}$$

I

$$\begin{array}{r} 259 \\ + 154 \\ \hline \end{array}$$

D

$$\begin{array}{r} 302 \\ - 187 \\ \hline \end{array}$$

T

$$\begin{array}{r} 700 \\ - 228 \\ \hline \end{array}$$

921	413	243	115	413	358	472	142	243
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----



Biz arab raqamlari deb ataydigan raqamlar Hindistonda kashf qilingan. Boshqa xalqlarda bo'lmagan 0 raqami hindlarning muhim kashfiyoti bo'lgan. Nol borligi tufayli eng uzun sonlarni ham o'nta raqam yordamida yozish imkoniyati paydo bo'ldi.



2. Biz pozitsion sanoq sistemasidan foydalanamiz. Bu raqamning qiymati uning joylashgan o'rniga bog'liqligini anglatadi. 2, 5, 8 raqamlaridan tuzish mumkin bo'lgan uch xonali sonlarni ayting. Chiqqan har bir sonda nechta yuzlik, o'nlik va birlik bor? Har bir sonda nechta to'liq o'nlik bor? Nechta to'liq yuzlik bor?

11. Pozitsion sanoq sistemasi



3. Xorazmiygacha Yevropada rim yozuvidan foydalanilgan. Sonlarni arab raqamlarida yozing va amallarni bajaring.

$$I = 1, \quad V = 5, \quad X = 10, \quad L = 50, \quad C = 100.$$

$XXV + LIII$	$LXXII - XXXIII$	$C : V$
$XII + III$	$X - VIII$	$XV \cdot V$



4. Sonlarni raqamlar bilan yozing, ularda:

- 2 ta minglik 487 ta birlik;
 - 5 ta minglik 304 ta birlik;
 - 12 ta minglik 100 ta birlik;
 - 280 ta minglik 600 ta birlik bo'lsin.
- Har bir sonda nechta raqam bor?



5. Xivadagi yodgorliklarni ko'rish uchun 5 soat-u 45 minut, tushlikka 35 minut, bozorga borish uchun yodgorliklarni ko'rishdan 2 soat-u 50 minut kam vaqt rejalashtirilgan. Agar sayohatchilar mehmonxonadan 9:00 da chiqqan bo'lsa, ular soat nechada qaytib kelishadi?



6. Taqqoslang.

$$1 \cdot 18 \square 18 \cdot 0$$

$$32 : 1 \square 0 : 32$$

$$a : a \square b : b$$

$$4 \cdot 1 \square 4 + 0$$

$$11 - 0 \square 11 \cdot 0$$

$$c \cdot 0 \square 0 \cdot c$$



7. Quyidagi misollarni ifoda ko'rinishida yozing va ularning qiymatini hisoblang.

- Eng katta ikki xonali son bilan eng kichik uch xonali sonning yig'indisidan 3 marta orttirilgan eng katta bir xonali sonni ayirib.
- Eng kichik uch xonali son bilan eng kichik natural sonning ayirmasini eng katta ikki xonali songa bo'ling.

11. Pozitsion sanoq sistemasi



8. a) 3 ta magnitli esdalik sovg'a uchun 60 000 so'm to'landi. 5 ta magnit uchun qancha to'lash kerak?
b) 8 dona sopol haykalcha uchun 720 000 so'm to'langan. Bu haykalchalarning 4 tasi uchun qancha to'lash kerak bo'ladi?



9. Navbatdagi rasm qanday bo'ladi?



10. 4 quti shirinlik uchun 360 000 so'm to'langan. 9 quti shirinlik uchun qancha to'lash kerak?



11. Hisoblang.

Muhammad al-Xorazmiy izlanishlari natijasida fanga qanday zamonaviy so'zlar kirib kelganini bilib oling.

- a) Javoblarga mos harflarni o'sish tartibida qo'yib chiqing.

A	$60 : 2 - 17$	M	$32 + 7 \cdot 2$
G	$48 : 6 + 8$	O	$54 : 9 + 18$
I	$59 - 6 \cdot 5$	R	$81 : 9 + 19$
L	$180 : 9 - 6$	T	$64 - 8 \cdot 3$

- b) Doiraviy misollarni yeching. Javoblarni A harfi qiymatidan boshlab qo'yib chiqing va so'zni toping.

G $719 - 87$

L $211 + 508$

B $741 - 249$

E $632 + 109$

A $367 - 156$

R $492 - 125$